



## TA'LIM VA TARBIYA UZLUKSIZLIGINI AMALGA OSHIRISHNING ELEKTRON RESURSLARI

*Axmadaliyev S. Y.*

*Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini  
qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti  
Pedagogika fanlari nomzodi., dotsent*

**Tayanch soʻzlar:** fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ilmiy bilimlar, elektron resurslari, ta'lim va tarbiya uzluksizligi, zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida didaktika.

**Ключевые слова:** сегодня, когда наука и техника стремительно развиваются, научные знания, электронные ресурсы, непрерывность образования и обучения, дидактика находятся в среде современных информационных технологий.

**Key words:** today, when science and technology are rapidly developing, scientific knowledge, electronic resources, continuity of education and training, didactics are in the environment of modern information technologies

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida» 2005 yil 28 sentyabrdagi PQ-191-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2002 yil 6 iyundagi 200-sonli, «Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 2006 yil 16 fevraldagi 25-sonli Qarorlarining qabul qilinishi ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida e'tibor qaratilayotganidan dalolatdir.

Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomondan, fan-texnikaning yangi soha va bo'limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differentsiallashtirishini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda.

Bunday sharoitda, yuqori malakali pedagog kadrlarga bo'lgan talablar ortib borib, barkamol avlodni asrlar davomida shakllanib kelgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash layoqatiga ega, fanning fundamental asoslarini, pedagogika va psixologiya metodlarini mukammal egallagan, kasbiy tayyorgarligi yuksak darajada bo'lgan hamda zamonaviy pedagogik va axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakasini puxta o'zlashtirgan ijodkor pedagoglarni tayyorlash talab etiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida didaktika, zamonaviy axborot texnologiyalaridan faol foydalanish orqali bilimlarning samarali o'zlashtirishga yo'naltirilgan o'quv faoliyatining keng jabhali turlarini taklif etadi. Bu muhitdagi didaktika fikrlashni, shaxsning salohiyati va imkoniyatlarini, unda axborot madaniyatini tarbiyalash bo'yicha malaka va ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonlarini axborotlashtirish –pedagogik-psixologik maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy axborot texnologiyalarini ishlab chiqishni va ulardan foydalanishni nazarda tutadi.

Ta'limdagi islohotlar har bir pedagogdan o'zining faniga va barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid axborotlarni muntazam o'rgana borib, ularni o'z mehnat faoliyatida izchil qo'llay bilishni talab qiladi.

Bu jarayon zamonaviy axborotlashgan jamiyatda shaxsni rivojlantirish maqsadlarida ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini tanlash va metodologiyasini takomillashtirishni hamda talabning intellektual salohiyatini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Talabalar o'qishini nazorat qilishning boshqa bir muhim vazifasi ularni tarbiya qilish bilan bog'liq bo'lib, ularda o'qishga javobgarlik, intizom, saranjomlik va soflilik his-tuyg'ularini tarbiya qiladi. Ularda mehnatga layoqatlilikni g'urur va irodani hamda mehnatga nisbatan muntazam ko'nikmani shakllantiradi

Ta'lim va tarbiya ishlar jarayoni murakkab jarayon bo'lib, unda ta'lim muassasasining jamoasi, murabbiy va talabalarning o'zaro munosabatidagi yaxlitlik ta'minlanadi. Endilikda ushbu jarayon elektron tarbiya resurslari – rasmiy Veb-saytlar, elektron formatdagi adabiyotlar, audio va video materiallar, o'rgatuvchi kompyuter dasturlari bilan uyg'unlashib bormoqda. Bu vaziyatda ta'lim-tarbiya jarayonlari ko'proq talabning ichki imkoniyatlari, intellektual salohiyati, axborotni qabul qilish va o'zlashtirish qobiliyatlariga bevosita bog'liq bo'lmoqda.

Ma'lumki, pedagogik tadqiqotlarda ko'proq didaktikaga, ya'ni o'quv materiali mazmunini asoslashga, o'qitishning tashkiliy shakllari va metodlariga qaratiladi. O'qitish jarayoni didaktik tamoyillarga – o'quv materialining izchilligi va tizimliliigi, ko'rgazmaliligi, tushunarliliigi, ilmiyiligiga asoslanadi. Elektron ta'lim va tarbiya resurslar ham qayd etilgan tamoyillar asosida yaratiladi. Ular



an'anaviy tarbiyaviy faoliyatning ketma-ketligi va izchilligini inkor etmaydi, balki uning mazmunini zamonaviy kompyuter texnologiyalari asosida to'ldiradi.

Yuqorida bayon qilingan fikrlardan kelib chiqqan holda axborot texnologiyalarini ta'lim muassasalari ta'lim-tarbiya ishlarni boshqarish tizimida qo'llash, bir tomondan, murabbiylardan resurslarni o'zlashtirishini oshishiga, ikkinchi tomondan, talabalarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini, ularning ma'naviy kamoloti darajasi to'g'risida ma'lumotlar olish, ularning dinamikasini kuzatish, bashoratlash, zarur hollarda tuzatishlar kiritish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Bizning fikrimizcha, uzluksiz ta'lim-tarbiya jarayonlariga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etishda asosiy vazifalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. yangi axborot texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishning zaruriy moddiy-texnika bazasini yaratish;
2. ta'lim-tarbiya jarayoni uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini loyihalash va qo'llash;
3. foydalanuvchilarning zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirish;
4. zamonaviy texnologiyalar negizida ta'lim va tarbiya jarayonlaridagi samaradorlikni kafolatlash.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6108-sonli Farmoni.
3. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari (ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi akademik liseylarda matematika o'qitish misolida): Ped.fan.dok... diss. – Toshkent, 2006.
4. Botirova Sh.I. Adabiy ta'lim klasterining ilmiy-nazariy asoslari. Ped. fan. dok. (DSs) diss. avtoref. – Chirchiq, 2021.
5. Ismoilova Z.K. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari: Dis... ped. fan. d-ri. – T., 2006.
10. Беспалко, В.П. Основы теории педагогических систем: проблемы и методы психолог-педагогического обеспечения технических обучающихся систем: монография [Текст] / В. П. Беспалко. – 3-э изд. – Воронеж: Изд-во Воро-неж. ун-та, 2011.

#### РЕЗИОМЕ

Ushbu maqolada ta'lim va tarbiya uzluksizligini amalga oshirishning elektron resurslari to'g'risida so'z yuritiladi.

#### РЕЗИОМЕ

В данной статье говорится об электронных ресурсах для реализации непрерывности образования и обучения.

#### SUMMARY

This article talks about electronic resources for implementing continuity of education and training.